

1920-YILLARDA SOVET ITTIFOQINING “HUJUM” HARAKATINING O‘ZBEKISTON SSR DAGI AYOLLARGA IJTIMOY-SIYOSIY TA’SIRI

Qahramonov Jafar Alisher o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti

70220301 - Tarix mutaxassisligi

birinchi bosqich magistranti

jafarkakhramonov@gmail.com

+998943757977

Аннотация

Mazkur maqolada 1920-yillarda Sovet Ittifoqi tomonidan O‘zbekiston SSR hududida amalga oshirilgan “Hujum” harakatining ayollar hayotiga ko‘rsatgan ijtimoiy-siyosiy ta’siri tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kampaniyaning yuzaga kelish omillari, mafkuraviy asoslari, amalga oshirish mexanizmlari hamda uning mahalliy jamiyatdagi aks-sadosi yoritilgan. Shuningdek, ayollarni ijtimoiy hayotga jalb etish, savodxonlikni oshirish, siyosiy faollikni kuchaytirish va iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash yo‘lidagi o‘zgarishlar tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari “Hujum” harakati ayollar mavqeini oshirishda muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, uning ma’muriy-buyruqbozlik usullarida olib borilgani sababli jamiyatda keskin qarama-qarshiliklar va fojeali oqibatlarini yuzaga keltirganini ko‘rsatadi.

Калит со‘злар: Hujum harakati, O‘zbekiston SSR, sovet modernizatsiyasi, ayollar masalasi, paranji, gender siyosati, xotin-qizlar ozodligi, sovet mafkurasi, jadidchilik, ijtimoiy transformatsiya.

Аннотация

В статье анализируется социально-политическое влияние движения «Худжум», осуществленного Советским Союзом в Узбекской ССР в 1920-х годах. Исследуются причины возникновения кампании, ее идеологические основы, механизмы реализации и последствия для положения женщин в обществе. Особое внимание уделено изменениям в сфере образования, политической активности и трудовой занятости женщин. Сделан вывод о двойственном характере политики «Худжум», которая способствовала расширению прав женщин, но одновременно усилила социальные противоречия в традиционном обществе.

Ключевые слова: Худжум, Узбекская ССР, женщины, гендерная политика, советская модернизация, паранджа, социальные реформы.

Abstract



This article examines the socio-political impact of the Soviet “Hujum” campaign on women in the Uzbek SSR during the 1920s. The study analyzes the causes, ideological foundations, implementation mechanisms, and consequences of the campaign. Particular attention is paid to women's participation in education, politics, and labor. The findings suggest that while the campaign contributed to women's emancipation and social inclusion, its coercive nature generated significant social tensions and conflicts within traditional Uzbek society.

Keywords: Hujum campaign, Uzbek SSR, Soviet modernization, women, gender policy, emancipation, social transformation, Central Asia.

Kirish

XX asrning birinchi choragi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida tub burilishlar davri sifatida namoyon bo‘ldi. 1917-yilgi Oktabr to‘ntarishi natijasida Rossiya imperiyasi o‘rnida shakllangan Sovet davlati o‘z tarkibiga kirgan xalqlar hayotini kommunistik mafkura asosida qayta qurishga kirishdi. Bu jarayonda ayollar masalasi bolsheviklar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish natijasida O‘zbekiston SSR tashkil topgach, sovet hokimiyati yangi respublikada iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarni tubdan o‘zgartirish siyosatini olib bordi. Mazkur siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ayollarni “ozod qilish” va ularni yangi sovet jamiyatining faol a‘zosi ga aylantirishdan iborat edi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ayollarning ijtimoiy mavqei an‘anaviy diniy va patriarxal munosabatlar bilan belgilanar edi. Ayollar ta‘lim olish, davlat boshqaruvida qatnashish, iqtisodiy faoliyat yuritish imkoniyatlaridan deyarli mahrum bo‘lgan. Shu sababli sovet rahbariyati ayollarni ozod qilish masalasini Sharqni modernizatsiya qilishning muhim vositasi sifatida ko‘rdi.

1927-yilda boshlangan “Hujum” kampaniyasi ana shu siyosatning eng keskin va bahsli bosqichiga aylandi. Ushbu kampaniya O‘zbekiston tarixida nafaqat gender munosabatlarini, balki butun jamiyatning siyosiy va madaniy taraqqiyot yo‘nalishini o‘zgartirgan voqealardan biri sifatida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Sovet davri statistik ma‘lumotlari, arxiv hujjatlari, zamonaviy tarixshunoslik asarlari hamda xorijiy tadqiqotchilar ishlari o‘zaro taqqoslandi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy voqealarni sabab-oqibat munosabatlari nuqtai nazaridan tahlil qilish tashkil etadi.

“Hujum” harakatining shakllanish omillari va mafkuraviy asoslari

Sovet hokimiyatining ayollar masalasiga munosabati marksistik nazariyaga asoslangan edi. Karl Marks va Fridrix Engels tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga

ko'ra, ayollar tengsizligi sinfiy jamiyat mahsuli hisoblangan. Shu bois kommunistik tuzum qurilishi jarayonida ayollarni iqtisodiy va siyosiy hayotga jalb qilish zarur deb hisoblandi.

1919-yilda Rossiya Kommunistik partiyasi huzurida Jenotdel tashkil etildi. Mazkur bo'lim Sharq respublikalarida xotin-qizlar bilan ishlashning asosiy markaziga aylandi. Turkiston ASSRda ham xotin-qizlar bo'limlari faoliyat yurita boshladi.

Biroq O'rta Osiyoda ayollar masalasi Rossiyaning markaziy hududlaridan farq qilardi. Bu yerda ayollarning paranji va chachvon o'rashi, qizlarning erta turmushga uzatilishi, ko'pxotinlilik va qalin kabi urf-odatlar keng tarqalgan edi. Sovet mafkurachilari bunday holatlarni "feodal qoloqlik" belgisi sifatida talqin qildilar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ayollar ta'limi va huquqlari masalasi sovetlar davridan oldin ham jadidlar faoliyatida muhim o'rin egallagan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa jadidlar qizlar maktablarini tashkil etish orqali ayollar savodxonligini oshirishga harakat qilganlar. Ammo jadidlar evolyutsion yo'lni tanlagan bo'lsalar, sovetlar inqilobiy usullarni qo'lladilar.

1925–1926-yillarda O'zbekistonda xotin-qizlar klublari, "Qizil choyxonalar", savodxonlik kurslari va targ'ibot markazlari tashkil qilindi. Biroq bu tadbirlar natijasida jamiyatda kutilgan darajadagi o'zgarishlar yuz bermadi. Natijada Moskva rahbariyati yanada qat'iy choralar ko'rishga qaror qildi.

1927-yil 8-mart kuni "Hujum" kampaniyasining rasmiy boshlanishi e'lon qilindi. Mazkur kampaniya Sovet Sharqidagi eng yirik ijtimoiy eksperimentlardan biriga aylandi.

"Hujum" kampaniyasining amalga oshirilishi va ayollarning ijtimoiy faollashuvi

1927-yil bahoridan boshlab O'zbekistonning barcha hududlarida ommaviy targ'ibot ishlari boshlandi. Partiya va komsomol tashkilotlari tomonidan yig'ilishlar, mitinglar, madaniy tadbirlar tashkil qilindi.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Andijon va boshqa shaharlarda minglab ayollar ishtirokida paranjilarni ommaviy ravishda yechish marosimlari o'tkazildi. Sovet matbuoti bu voqealarni "Sharq ayollarining ozodlik bayrami" sifatida talqin qildi.

1927-yilning o'zida o'n minglab ayollar paranji tashlagani haqida rasmiy ma'lumotlar berilgan. Biroq tarixchilar bu raqamlar ko'pincha siyosiy maqsadlarda oshirib ko'rsatilganini ta'kidlaydilar.

"Hujum" harakati natijasida ta'lim tizimida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Agar 1920-yillar boshlarida qizlarning maktablardagi ulushi juda past bo'lgan bo'lsa, 1930-yillarga kelib ularning soni bir necha barobar oshdi. Xotin-qizlar uchun pedagogika kurslari, tibbiyot bilim yurtlari va kasb-hunar maktablari ochildi.

Ayollarning mehnat faoliyatiga jalb qilinishi ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ular paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik korxonalarini, maorif va sog'liqni saqlash muassasalarida ishlay boshladilar.

Siyosiy sohada ham muhim o'zgarishlar kuzatildi. Ayollar sovetlarga deputat etib saylanish, partiya organlarida ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1930-yillarning boshlariga kelib mahalliy boshqaruv organlarida faoliyat yuritayotgan ayollar soni sezilarli darajada oshdi.

Biroq ushbu natijalarning aksariyati tabiiy rivojlanish mahsuli emas, balki davlat tomonidan qat'iy nazorat ostida amalga oshirilgan siyosat natijasi edi. Bu esa kompaniyaning ijtimoiy qabul qilinish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

“Hujum” harakatiga qarshilik va uning fojeali oqibatlari

“Hujum” kompaniyasi mahalliy jamiyatda bir xil qabul qilinmadi. Ayniqsa qishloq hududlarida an'anaviy qarashlarga ega aholi vakillari ushbu siyosatga qarshi chiqdilar.

Tarixiy manbalarda kompaniya davomida yuzlab ayollar va partiya faollariga nisbatan zo'ravonliklar sodir etilgani qayd etilgan. Ayrim hollarda paranji tashlagan ayollar o'z oila a'zolari tomonidan jazolangan yoki o'ldirilgan.

1927–1928-yillarda Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida ayollar faolligiga qarshi ko'plab zo'ravonlik holatlari kuzatilgan. Sovet manbalari yuzlab qotilliklar sodir bo'lganini qayd etadi.

Tursunoy Saidazimovaning o'ldirilishi “Hujum” kompaniyasining eng mashhur fojearidan biri hisoblanadi. U ayollar huquqlari uchun faol kurashgan bo'lib, konservativ kuchlar tomonidan qatl etilgan. Sovet propagandasi ushbu voqeani keng targ'ib qilib, kompaniyani yanada kuchaytirishga urindi.

Mahalliy aholi qarshiligining sabablari murakkab edi. Birinchidan, kompaniya diniy va milliy qadriyatlarga tajovuz sifatida qabul qilindi. Ikkinchidan, islohotlarning majburiy xarakteri norozilikni kuchaytirdi. Uchinchidan, sovet hokimiyati mahalliy mentalitet va tarixiy an'analarni yetarlicha hisobga olmadi.

Natijada ayollar masalasi oddiy ijtimoiy muammo doirasidan chiqib, siyosiy qarama-qarshilik maydoniga aylandi.

“Hujum” harakatining tarixiy ahamiyati va zamonaviy tarixshunoslikdagi baholari

Mustaqillik davri tarixshunosligida “Hujum” harakatiga nisbatan yondashuvlar sezilarli darajada o'zgardi. Sovet davrida kompaniya faqat ijobiy hodisa sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotchilar uning murakkab va ziddiyatli mohiyatini ochib bermoqdalar.

Amerikalik tarixchi Duglas Nortrop “Veiled Empire” asarida “Hujum”ni sovet modernizatsiyasining ramziy loyihasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, kompaniya

ayollarni ozod qilishdan ko'ra ko'proq sovet hokimiyatining jamiyat ustidan nazoratini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Marianne Kamp esa ayollar haqiqatan ham yangi imkoniyatlarga ega bo'lganini, biroq bu jarayon ko'plab fojealar evaziga amalga oshirilganini ta'kidlaydi.

O'zbekiston tarixchilari ham "Hujum" masalasiga kompleks yondashmoqdalar. Ularning fikricha, kompaniya bir tomondan ayollar savodxonligini oshirgan va ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlar va an'anaviy institutlarga jiddiy zarba bergan.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari jamiyatning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgandagina samarali bo'ladi.

Xulosa

1920-yillarda Sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan "Hujum" harakati O'zbekiston tarixidagi eng murakkab va bahsli ijtimoiy-siyosiy kampaniyalardan biri hisoblanadi. Ushbu kompaniya ayollarni ta'lim, ishlab chiqarish va siyosiy hayotga jalb etish orqali gender tenglikni ta'minlashni maqsad qilgan edi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Hujum" harakati natijasida ayollar savodxonligi oshdi, ularning jamiyatdagi mavqei mustahkamlandi va yangi kasbiy imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, kompaniyaning majburiy xarakteri, mahalliy an'analarni inkor etishi hamda mafkuraviy bosimlarga asoslanishi keskin qarshiliklar va fojeali oqibatlarni yuzaga keltirdi.

Demak, "Hujum" harakati tarixini bir tomonlama baholash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. U bir vaqtning o'zida ham modernizatsiya, ham siyosiy zo'ravonlik elementlarini o'zida mujassam etgan murakkab tarixiy hodisa sifatida o'rganilishi lozim. Mazkur tajriba bugungi kunda ham ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda tarixiy-madaniy omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatib beradi.

Ilmiy yangilik

- "Hujum" kampaniyasining gender siyosati bilan bir qatorda sovet hokimiyatining siyosiy legitimatsiya vositasi sifatidagi roli tahlil qilindi.
- Kampaniyaning ijobiy va salbiy oqibatlari kompleks ravishda yoritildi.
- Ayollar faollashuvi va mahalliy jamiyat qarshiligi o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov Sh., Shamsutdinov R. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010.
2. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. – Toshkent: Universitet, 2002.
3. Alimova D. Jenskoye dvijenie v Uzbekistane. – Tashkent: Fan, 1987.
4. Keller S. To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917–1941. – Westport, 2001.

5. Northrop D. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. – Cornell University Press, 2004.
6. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan. – Seattle, 2006.
7. Massell G. The Surrogate Proletariat. – Princeton University Press, 1974.
8. O‘zbekiston Milliy Arxivi, R-86 fond.
9. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005.
10. O‘zbekiston tarixi (1917–1991). – Toshkent: Akademnashr, 2019.